



UZBEKISTAN'S FAMILY POLICY: TRANSFORMATION PROCESSES AND INNOVATIVE SOCIAL MECHANISMS (2017–2024)

Oksana Alikulovna Rahmonkulova

Acting Associate Professor at Karshi State University

PhD in Philological Sciences

Email: oksanarahmonkulova@gmail.com

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: strengthening the institution of the family, supporting women, strengthening the educational potential of the family, maintaining family values in society, improving the spiritual and moral environment in families, increasing the level of well-being.

Abstract: The article discusses the protection of the rights and interests of the family, women and youth during the period of independence, social support, further strengthening of their position in society, employment, poverty prevention, creating family opportunities in the development of the state and society, new systems for realizing their potential in various fields and essence.

Received: 16.05.26

Accepted: 17.05.26

Published: 18.05.26

O'ZBEKISTON OILA SIYOSATI: TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA INNOVATSION IJTIMOYIY MEXANIZMLAR (2017–2024 YY)

Oksana Alikulovna Rahmonkulova

Qarshi davlat universiteti

v.b dotsent. T.f.f.d (PhD)

oksanarahmonkulova@gmail.com

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, oilaning tarbiyaviy-ta'limiy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash,

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik davrida oila, xotin-qizlar va yoshlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash, bandligini ta'minlash, kambag'allikning oldini olish, davlat va jamiyat taraqqiyotida oilalar uchun keng imkoniyatlar yaratish, ayollarning turli

farovonlik darajasini oshirish.

sohalardagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish borasida yangi tizimlar va ularning mohiyati o'z aksini topgan.

СЕМЕЙНАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА: ПРОЦЕССЫ ТРАНСФОРМАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ СОЦИАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ (2017–2024 ГГ)

Оксана Аликуловна Рахмонкулова

и.о. доцента Каршинский государственный университет

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Email: oksanarahmonkulova@gmail.com

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: укрепление института семьи, поддержка женщин, усиление воспитательного потенциала семьи, сохранение семейных ценностей в обществе, улучшение духовно-нравственной среды в семьях, повышение уровня благосостояния.

Аннотация: В статье рассматриваются защита прав и интересов семьи, женщин и молодежи в период независимости, социальная поддержка, дальнейшее укрепление их положения в обществе, трудоустройство, предотвращение бедности, создание возможностей семьи в развитии государства и общества, новые системы по реализации их потенциала в различных областях и сущность.

Kirish. Oila – mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir". Deydi president Shavkat Mirziyoyev [1]. Darhaqiqat Oila – asrlar davomida shakllanib kelgan jamiyatning mustahkam poydevori, jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi qudratli maskan. Jamiyatning har tomonlama farovonligi oilaning mustahkamligi, farovonligi, tinchligi va xotirjamligiga bog'liq. Shu bois Yangi O'zbekiston hamda Uchinchi Renessans poydevoriga asos solinayotgan bir davrda oila institutini mustahkamlash va uning tinchligi, xotirjamligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Metodlar. Maqola umum qabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv metodi orqali oila va xotin-qizlar qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi va uning mahallabay ishlash samaradorligi tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, oila, xotin-qizlar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash, bandligini ta'minlash, kambag'allikning oldini olish, hayotdan xursandlik hissini shakllantirish, davlat va jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning bilim olishlari, kasb egallashlari, tadbirkorlik faoliyati bilan

shug‘ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularning turli sohalarda qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy faolligini oshirish, gender tengligini ta‘minlash kabi qator masalalarga oid 100 ga yaqin huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ayniqsa, keyingi yillarda bu borada olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida belgilab berilgan 7 ta yo‘nalishning beshinchi “Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishi bo‘yicha 71–78-maqsadlarning mohiyati ham oilaning ma‘naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan[1].

69-maqsad esa “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash” kabilarni o‘z ichiga olgan masalalardan iboratdir. Mazkur maqsadda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash uchun quyidagi 7 ta ustuvor yo‘nalish belgilangan:

1. Jamiyatda xotin-qizlarga ustidan tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan muhosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash.
2. Gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish.
3. Xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikma olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish.
4. Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish.
5. Turarjoyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.
6. Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash.
7. “Ayollar daftari” bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o‘z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar, xususan “Ayollar daftari” tizimi, xalqaro amaliyot va tarixiy tajriba bilan qiyoslab tahlil qilinganda uning ilmiy ahamiyati va noyob jihatlari yanada yorqin namoyon bo‘ladi. “Ayollar daftari” - bu O‘zbekistonda xotin-

qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash va muammolarini manzilli hal etishga qaratilgan institusional mexanizm hisoblanadi. Bu tizimning asosiy xususiyati - individual yondashuv va mahalla darajasida amalga oshirilishidir. Xorijiy modellar bilan qiyoslanganda Germaniya (Farqi: Germaniyada yordam ko'proq umumiy tizim orqali beriladi, ya'ni aholi guruhlari kesimida. O'zbekistonda esa "Ayollar daftari" orqali individual holatlar kesimida manzilli yordam ko'rsatiladi.), Koreya (Farqi: Koreyada asosiy e'tibor iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan. O'zbekistonda esa ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni mahalla darajasida hal qilish ustuvor.), Sovet davrida (Farqi: Sovet tizimida individual muammolar emas, balki ommaviy siyosat ustuvor bo'lgan. "Ayollar daftari" esa har bir ayolning alohida muammosini hisobga oladi.) demak, "Ayollar daftari" tizimi xorijiy ijtimoiy himoya modellaridan farqli ravishda aholining muayyan qatlamini emas, balki aniq shaxsni ijtimoiy siyosat markaziga qo'yadi. Ushbu jihat uni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham innovatsion ijtimoiy boshqaruv mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 81-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonda oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

. xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish;

. gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish;

. hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

. turarjoyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash;

. og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni "Ayollar daftari" orqali manzilli qo'llab-quvvatlash;

. jamiyatda xotin-qizlar ustidan tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan muvofiqlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

. oilaning tarbiyaviy-ta'limiy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish [2].

Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etildi [3]. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasiga – Bosh vazir o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi lavozimi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tuzilmasiga – Vazirlar Kengashi Raisi o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi lavozimi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalariga – hokim o'rinbosarlari – oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlari lavozimlari;

tuman (shahar) hokimliklari tuzilmalariga – hokim o'rinbosarlari – oila va xotin-qizlar bo'limlari boshliqlari lavozimlari kiritildi.

Prezidentimiz bu borada obro'-e'tiborli, bilimli xotin-qizlardan iborat “Oqila ayollar” harakatini tashkil qilish taklifini bildirdi.

Davlatimiz rahbarining: “Bu harakat “mahallaning vijdoni”ga aylanishi kerak. Chunki ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurib bo'lmaydi”, – deya ta'kidlagani ham bejiz emas.

Har bir mahallada mahalla raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis lavozimi o'rniga xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzurida “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilib, uning zimmasiga oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish kabi muhim vazifalar yuklangan [4].

Xotin-qizlar va oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla va oila institutlarini har tomonlama mustahkamlash bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirishning “mahallabay”, ”xonadonbay” vertikal tizimi yaratildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan kambag'allikning oldini olish, ehtiyojmand oilalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar, yoshlar va barcha toifa fuqarolarni qo'llab-quvvatlash borasida asos solgan “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Mehr daftari” kabi yangi tizimlarning asl maqsadi ham oilalar moddiy qadriyatlarining yanada barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.[5]

Farmonga muvofiq, mahalladagi xotin-qizlar faolining quyidagi asosiy vazifalari belgilab berilgan:

1. Xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma‘naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma‘naviy-axloqiy muhitini va an‘anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2. Xotin-qizlarning tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralari jalb qilish bo‘yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi.

3. “Ayollar maslahat kengashlari” bilan yaqin hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko‘maklashish, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish.

4. Xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etish.

Mahallalardagi xotin-qizlar faolining ushbu vazifalari asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma‘naviy-axloqiy muhiti va an‘anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1) erta nikohlarning oldini olish, notinch va muammoli oilalar bilan manzilli ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

2) mahallada oilaviy kelishmovchilik sababli muammosi bor bo‘lgan oilalar ro‘yxatini shakllantirish, ularga namunali oilalarni biriktirishda ishtirok etish;

3) oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi a‘zosi sifatida ijtimoiy-ma‘naviy muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi holatlarni aniqlashda ishtirok etish;

4) notinch va muammoli oilalar bilan o‘tkaziladigan profilaktik ishlarda ishtirok etish;

5) oilalar o‘rtasida har haftaning shanba kuni – “Ahil oila” kunida namunali oilalar tajribasini oilalarga singdirish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish;

6) ota-onalarni “Ota-onalar universiteti” mashg‘ulotlariga jalb etish;

7) mahallada noqonuniy nikoh asosida yashayotgan oilalarni aniqlash, ular bilan manzilli yakka tartibda suhbatlar olib borish, qonuniy nikohning afzalliklarini tushuntirish, nikohni qonuniylashtirishga yordam berish;

8) oilaviy hayot mas'uliyati, er-xotin, qaynona-kelin munosabatlari, haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

9) balog'atga yetayotgan va turmush qurish arafasida turgan yoshlar ro'yxatini shakllantirish;

10) alohida jadval asosida yigit-qizlarni "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazi" o'quvlariga jalb etish;

11) oilalardagi muammolarni aniqlash, ularning muammolarini hal etishga ko'maklashish, ijtimoiy xizmatlarni mahallada tashkil etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish.

Prezident Farmonlariga muvofiq, farovon va barqaror oilalarning hayotiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan oilalarga beriladigan "Ibratli oila" ko'krak nishoni ta'xis etilgani va uni 15-may – "Xalqaro oila kuni"da topshirish O'zbekiston davlati tarixidagi muhim voqelikdir.

Ayniqsa, "Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi" ko'rik-tanlovi hududlarda va mahallalarda yuqori saviyada tashkil etilayotgani, minglab ibratli oilalarning ijobiy tajribalari ommalashtirilayotgani ibratli oilalarning safi kengayishida, oila qadriyatlarining mustahkamlanishida muhim omil bo'ladi, deb ishonch bilan ta'kidlash joiz.

Xulosa. Shunday qilib, O'zbekistonda oila institutini takomillashtirish, milliy qadriyatlar vositasida mustahkamlash borasida olib borilayotgan davlat siyosati shaklan va mazmunan ko'pqirrali bo'lib, o'zining ijobiy samarasini bermoqda hamda dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak baholanmoqda, e'tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 1 martdagi PF-81-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2022 yil 1 martdagi PQ-146-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 7 martdagi PF-87-son Farmoni.

5. Ergasheva, Y., & Rakhmonkulova, O. (2023). From the history of small business and entrepreneurship in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 08016). EDP Sciences.